



**"MARKAZIY OSIYODA NEMIS TILI
O'QITISHNING
DOLZARB MASALALARI"**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman

TOSHKENT-2024



«AKTUELLE FRAGEN DES DEUTSCHUNTERRICHTS IN ZENTRALASIEN»

2. wissenschaftlich-praktisches Forum der Zentralasiatischen
Deutschlehrer*innen
25-26. März 2023, Taschkent Usbekistan

Organisatoren des Forums:



www.uzswiu.uz



www.dlvu.uz

Förderer der Drucksachen:



www.goethe.de/usbekistan/

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI
NEMIS TILI NAZARIY FANLAR KAFEDRASI

**“MARKAZIY OSIYODA NEMIS TILI O'QITISHNING
DOLZARB MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Das 2. internationale wissenschaftlich-praktische Forum der
Zentralasiatischen Deutschlehrer*innen „Aktuelle Fragen des
Deutschunterrichts in Zentralasien“

1-QISM

**TOSHKENT,
2024-yil 25—26-mart**

31	Abdildayeva N.	Technologie der Arbeit mit authentischen Texten auf der Grundstufe des Hoertrainings	140
32	Musayeva Guzal	Nemischa-o'zbekcha tarjimalarda obrazli vositalarning qayta yaratilishi	145
33	Seytkaziyeva Saltanat	Формирования профессиональной компетентности будущих специалистов	150
34	Turdiyev Hakimjon,Raximov Xusniddin	Abdulla Qahhorning "anor" hikoyalar to'plamidagi xos so'zlarni nemischa tarjimasi xususida	153
35	Xalmirzayev E., Xalmirzayeva K.	Электронное тестирование в обучении немецкому языку	157
36	Berdieva Barno	Chet tillarni o'qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati	161
37	Gafarova Farogat, Gaforova Muckbira	Ausdruck der Höflichkeit durch die nonverbalen Kommunikationsmittel	165
38	G'afurova Shafoat	Chet tili darslarida yozma nutqning dolzarbligi	169
39	Axmetova M.	«Проектная работа-концепция обучения»	172
40	Raxmonqulova Xabiba	Pedagogikaning ta'lim kelajagiga ta'siri	176
41	Jekebayeva R	Особенности словообразования в немецком языке	181
42	Buriyeva E'zozxon	Stefan Sveyg novellalarida ayollar obrazlarini ifodalanishi o'zbek va nemis tillari misolida	187
43	Azizova Gulnora	Особенности и существующие трудности в изучении немецкого языка как второго иностранного языка в Таджикистане	192
44	Xaitova Gulshan	Аграр соҳага оид терминологияларнинг лингво-маданий хусусиятлари	196
45	Babayev Otabek	Jaloliddin Rumiy asarlarining nemis tilida nashr etilishi va o'rganilishi	200
46	Baxridinova Mutabarxon	OTM talabalariga ikkinchi horijiy tilni integrallashgan holda o'qitishda scaffolding (narvon) innovativ usulini qollashga doir	205
47	Israilova Dilorom	Chet tili darslarda motivasiyani oshirishning	208

**JALOLIDDİN RUMİY ASARLARİNİNG NEMİS TİLIDA NASHR
ETİLİŞHİ VA O'RGANİLİŞHİ**

Babayev Otabek Abdikarimovich

Filolog, nemis va ingliz tillari o'qituvchisi,

Buxoro davlat universiteti

o.a.babaev@buxdu.uz

<https://orcid.org/0000-0002-7190-6585>

Annotatsia: Jaloliddin Rumiyning ijodi o'z davridan to hozirgi kunga qadar dunyoqalqlarining diqqat-e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Albatta, nemis olimlari ham shoirning g'azalaru, ruboilyaridan bahra olish bilan birga, uning buyuk asari "Masnaviyi ma'naviy"dan ham xabardor bo'ldilar. Ushbu maqolada Rumiyning nemis muxlislari niroyatda chuqur ixlos bilan adib asarlarini o'qib- o'rganib, ijodiy yondashuvlari haqida so'z uritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyotshunoslik, Yevropa va Sharq tarjimonlari, Jaloliddin Rumiy, Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Hofiz, Sharq va Yevropa adabiyoti.

Abstract: Jalaliddin Rumi's work has attracted the attention of the peoples of the world from its time to the present day. Of course, German scholars also became aware of the poet's great work, "The Masnavi", as well as receiving praise from the poet's poems and proverbs. In this article, Rumi's German fans read and studied the works of Rumi with an incredibly deep devotion and were told about his creative approaches.

Keywords: Literary studies, translators of Europe and the East, Jalaliddin Rumiy, Firdavsiy, Shaykh Saadi, Hofiz, Oriental and European literature.

Аннотация: Творчество Джалауддина Руми привлекало внимание народов мира с тех пор и по сей день. Конечно, немецким ученым также стало известно о великом произведении поэта "Маснавий Маънавий", а также о получении похвалы от газели и рубаи поэта. В этой статье идет речь о немецких поклонниках Руми, которые с невероятно глубокой преданностью читали и изучали работы поэта и рассказывали о его творческих подходах.

Ключевые слова: Литературоведение, европейские и восточные переводчики, Джалауддин Руми, Фирдоуси, Шейх Сади, Хафиз, Восточная европейская литература.

Tarixdan ma'lumki, Sharq sivilizatsiya va madaniyat vatani hisoblanadi.

Shuning uchun Yevropa Sharq xalqlari, jumladan, osiyoliklarning bebaho ma'naviy merosinio'rganishga alohida ahamiyat qaratdi. Adabiyotshunoslik tarixiga e'tibor qaratilsa, adabiy aloqalarni o'rganish va ilmiy xulosalarga kelish XX asrning 50-yillaridan keyin boshlandi. Soha olimlarining asarlarida Sharq va G'arb adabiy aloqalari, xususan, Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Hofiz va boshqa fors-tojik mutafakkirlarining asarlari hamda ularning G'arb yozuvchilariga ta'siri o'rganildi. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'z saviyasi va ahamiyati bilan tahsinga sazovordir.

Qayd etish lozimki, Yevropada tojik-fors adabiyotini o'rganish va undan ilhomlanib ilmiy va badiiy asarlar yaratish O'rta asrlardayoq boshlangan edi.

Markaziy Osiyoda nemis tili o'qitishning dolzARB masalalari

Yevropalik tadqiqotchi va tarjimonlarning diqqat-e'tibori Firdavsiyning "Shohnoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Nizomiyning "Xamsa" asarlari, Hofiz, Rumi, Jomiy, Anvar, Unsuriylarning she'rlariga qaratilgan edi. Ulardan biri tojik-fors adabiyotiga tom bir ixlos bilan qaragan yevropalik shoir Iogann Wolfgang Gyotedir. U o'zining adabiy va ilmiy hayoti davomida boshqa mamlakatlar madaniyati bilan tanishgan va o'z g'oyalarini she'r shaklida ifodalagan. Gyote yoshligidan Sharq va uning yuksak, qadimiy donoligi hamda adabiyoti bilan hamnafas edi. Shoir Injil kitobi bilan birga, Qur'onni Karimning nemis tiliga qilingantarjimasini ham o'qirdi. Bu ikki samoviy kitobni, ayniqsa Qur'onni Karimni o'rganishuni o'z to'plamidagi ko'plab she'rlarni (masalan, "Ibrohim va Muhammadning xudosi") yaratishga ilhomlantirgan.

Gyote "Ming bir kecha" hikoyalari, Sharq sayohatlar haqidagi turli hikoyalar bilan tanish bo'lган, Volterning "Muhammad" pyesasini nemis tiliga tarjima qilgan va shu nomda pyesa yaratib, Napoleon bilan uchrashuvi (1808) chog'ida bu haqda batafsil gapirib bergen. U arab va fors tillarini o'rganishga harakat qilgan va bu uning qo'lyozmalaridan (go'zal arab yozuvidagi "Bismillahi-r-rohmaniyy-r-rohiyy" va "Qur'on"ning 114-surasi) yaqqol ko'rinish turibdi.

Gyote qadimgi hindu marosimlari bilan ham tanishgan va shundan so'ng u "Ramayana" afsonasi qahramonlari Rama va Sitoning muxlisiga aylangan va nihoyat, ushbu hind eposi asosida pyesa yozgan. 42 yoshida Germaniya va Yevropada shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarildi. U fors adabiyoti bilan yaqindan tanishdi. Gyoteni fors tili bilan bog'lagan birinchi asar Sa'diyning "Guliston" kitobidir. U Sharq adabiyotining nodir namunasi bo'lган bu kitobni sevib o'qigan.

Keyinchalik bu asar Gyotening devoni uchun ilhom manbayi bo'lган. Shu bilan birgalikda u Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin", Abdurahmon Jomiyning "Layli va Majnun" asarlarining tarjimasi bilan ham tanishgan. Bu ikki asar Gyotega fors-tojik adabiyotiga katta qiziqish uyg'otdi va u ushbu asarlardan ilhomlanib asarlar yaratdi. Gyote Sharq mutafakkirlaridan Anvari va Mavlono Jaloluddini Rumi (Balxiy) asarlari bilan ham tanishdi. Olmon shoiri o'z davridagi chalkashlik va tartibsizlik holatlarini bartaraf etish uchun ham Sharqning

Markaziy Osiyoda nemis tili o'qitishning dolzARB masalalari

donoligidan panoh izlaydi. 1814- yilda Gyote dunyoqarashida ma'lum darajada yangilanish, o'zgarish yuzaga keldi. Chunki unga kitoblarining noshiri Koto unga Xammer-Purgshtal tomonidan nemischaga o'girilgan Hofiz Sheroziyning ikki jildli devonini yuboradi. Hofiz asarlari bilan tanishgan Gyote shunday deb yozadi: "To'satdan men Eron cho'llari va dashtlaridan keladigan Sharqning jannatmonand xushbo'y hidi va abadiylik ruhi bilan tanishdim".²⁵ Ta'kidlash lozimki, Hofiz asarlarining tarjimoni Xammer-Purgshtal tarjimasida juda ko'p xatolar bor edi, ammo bu kamchiliklar Gyotening Hofizni o'qish va o'rganishiga to'sqinlik qila olmadi. Balki Hofiz asarlarini o'qish uni kuchli ilhomlantirdi. Chunki uningo'zi tan olganidek, Gyote Hofizning har bir g'azalini o'n martagacha o'qigan, metaforalarini so'zsiz tushungan va uning so'z san'atidan hayratga tushgan. Uning" G'arb va Sharq devon"ⁱ Hofizga bo'lgan samimiy ehtirom natijasidir. Ushbu devondan Gyotening shaklan Sharq shoirlari ijodiga yaqin bo'lgan bir qator turli she'rlari o'rinni olgan. Keyinchalik shoir "G'arb va Sharq devon"^{iga} "Devonni yaxshiroq tushunish uchun xotiralar va maqolalar (she'rlar to'plami)" nomli nasriy bo'limini qo'shib, 1828- yilda devon bilan birga nashr ettirgan. Gyote o'zining butun aql-zakovati, ijodkorligi va betakror novatorligi bilan Hofizga taqlid qilib, u kabi ijod qilishni orzu qilgan. Devonning xotiralar va maqolalar bo'limida Gyote shunday yozadi: "Hofiz, men dastlab ma'no haqida o'ylashni orzu qilaman, so'ngra siz kabi jahon shoirlarining shoiri kabi she'r yaratishim uchun unga chiroyli so'zlardan iborat ko'ylak to'qishni orzu qilaman!" Gyote G'arb dunyosi - Yevropaning shoiri edi, ijodida esa fors-tojik adabiyotining ta'siri mavjud. Shuning uchun ham Devonidagi she'rlarini yaratishda Sharq adabiyoti, G'arb obrazlari va G'arb tafakkuri o'z aksini topgan. Shundan kelib, Gyotening "Devon"inini G'arb va Sharq she'riyatining sintezi deyish mumkin.

Hofiz Eron falsafasining go'zalligi va tafakkur ishtiyoqi ifodasi uchun "sof qalb", "sof dunyo" va "sof ishq" tushunchalarini o'z ijodida kuylagan. Gyote ham bunga Sharq donoligining haqiqiy muhiti sifatida qarab, o'zining "Bepoyon" she'rida aytibो'tgan.

²⁵ Goethes Noten und Abhandlungen zum West-östlichen Divan. Wolfgang Lentz. Hamburg. 1958
203

Markaziy Osiyoda nemis tili o'qitishning dolzARB masalalari

G'arb olamida Hofiz nomi bilan birgalikda e'tirof etiladigan Sharqningbuyuk mutafakkirlaridan biri Jaloliddin Rumiydir. G'arbda uning ijodi tarjima bo'ldi, ilmiy tadqiq etildi, so'fiy asarlariga javobiya xarakteridagi qator asarlar yaratildi. Rumiy asarlari G'arbning bir qancha sharqshunos olimlar tomonidan o'rganildi. Ana shunday olimlardan biri Annemarie Shimmel xonimdir. Annemarie Shimmel tasavvuf ta'limotining yirik tadqiqotchilaridan biri bo'lib, o'zidan ahamiyatga molik asarlar qoldirdi. Shimmel "Shams shukuhi" kitobida Mavlaviyning irfon va ilohiyotga oid fikrlarini tadqiqot doirasiga tortar ekan, unga nisbatan bo'lgan har qanday shubhani bartaraf etish, uning nuroni va samimi chehrasini ko'rsatishga harakat qiladi. Shimmel vahiy, inson maqomi, moddiydunyo aksi, haqiqiy ishqning asl ildizi kabi mavzularga oid Mavlaviyning falsafiy fikrlariga jiddiy e'tibor qaratadi. Shuningdek, u o'zining "Shams shukuhi" deb nomlangan tadqiqotida quyidagi masalalar xususida bahs yuritadi: 1) qadimiy tarix va sarguzashtnomasi; 2) Rumiyning taxayyulot dunyosi; 3) Rumiy ilohiyoti: Yaratguvchi va yaratilgan mavjudotlar o'rtaсидаги munosabat, Rumiyning inson haqidagi qarashlari; 4) Forsiyzabon adib va olmilarning Rumiy ijodi haqidagimulohazalari; 5) Muallifning xotiralari.

Aytish lozimki, bu kitob Hasan Lohutiy tomonidan fors tiliga tarjima qilinib, h.sh. 1367/1989 yili Tehronda chop etilgan.

Annemarie Shimmelning XIX asr romantizmi davrida Mavlono Jaloliddin Rumiyning nemis shoir va yozuvchilariga ta'siri masalasiga oid tadqiqoti ilm sohada kam uchraydigan hodisadir. U Mavlaviyning "Fiyhi mo fiyhi" asarini ingliz tiliga tarjima qildi. Bundan tashqari Shimmel Mavlaviy ta'limotiga doir ko'pgina jiddiy maqolalar yozdi, ular orasida "Mavlono Rumiy: kecha, bugun va erta" maqolasini alohida qayd qilish joizdir. Sharqshunos olimning yana bir kitobi "Mening ruhim ayoldir", deb nomlanib, bunda "Masnaviyi ma'naviy" da keltirilgan ayollarga taalluqli hikoyat va dostonlar tahlili bilan bog'liq xulosalar keltirilgan.

A. Shimmel 1948-yilda "Masnaviy" dagi tasvir va obrazlar haqida yaratilgan chuqur va keng ilmiy tadqiqotini olmon tilida chop ettirdi. Bu kitob olimaning Rumiy ijodiy faoliyati haqida uzoq yillar olib borgan tadqiqotlarining samarasidir.

Markaziy Osiyoda nemis tili o'qitishning dolzARB masalalari

Annemarie Shimmel 1954- yil dekabr oyida Turkiya parlamentida ma'ruza qilib, o'zi bilan bog'liq Turkiya xalqi xotirasida iliq va samimiy bir iz qoldirdi. Hatto u oddiy xalqqa mo'ljallab, Mavlaviy she'rlaridan nemis tiliga qilgan tarjimalarini taqdim etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wolfgang Lentz. Goethes Noten und Abhandlungen zum West- östlichen Divan. Hamburg. 1958
2. Babayev, O. (2024). Periodische Phasen der Forschungen von Rumis Werken in deutscher Sprache. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 46(46). Извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12002
3. Babayev, O. (2023). Персидская литература в странах, говорящих по-немецки. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 40(40). Извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10688

OTM TALABALARIGA IKKINCHI HORIJIY TILNI INTEGRALLASHGAN HOLDA O'QITISHDA SCAFFOLDING (NARVON) INNOVATIV USULINI QOLLASHGA DOIR

**Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna
And.DU doktoranti**

Annotatsiya:“O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi boshqichga olib chiqish chora – tadbirlari tog'risida” PQ-5117 qarori chet tili o'qitishni yangi pallaga olib chiqdi. Ushbu maqolada filologik o'quv yurtlarida ikkinchi xorijiy tilni o'qitishda zamon talabalariga ko'ra o'qitish va va til o'rganish samaradorligini oshirishga hissa qo'shadigan samarali usullardan biri to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:Scaffolding,proksimal rivojlanish,ehtiyoj analizi, Mikro-Scaffolding, ijtimoiy integrallashuv, kontseptual, real vaziyat, lingvistik talablar, rejalshtirish

Talabalarning gapirish kompetentsiyasini yanada mukammallashtirish va ularni diskurs bahslarda faol ishtirokini jonlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun “Scaffolding” “narvon” usulidan yaqindan foydalanish mumkin. Bu har qanday horijiy tilga e'tiborli ta'lim berish usuli bo'lib,Vygotskiyning 'Proksimal rivojlanish zonasi'ning yaqinlashuvi" 19712:238) yondoshuviga asoslanadi. Bu usul shunday xarakterlanadi:

Vaqtincha bolsada tildagi nutqni qollash maqsadida narvon o'rnatiladi.Scaffolding usulining eng muhim shartlaridan biri avvalombor